



THE ROLE OF MAHMUD AL-ZAMAKHSHARI'S WORK "NUKATU AL-I'RAB" IN ENHANCING THE MORAL EDUCATION OF YOUTH IN THE MODERN ERA

Farida Abzalova

Basic Doctoral Student of the International Islamic Academy of Uzbekistan

faridaabzalova96@gmail.ru

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Al-Zamakhshari, Nukat al-i'rab, Jarullah, batini, zahiri.

Received: 20.05.26

Accepted: 21.05.26

Published: 22.05.26

Abstract: This article is devoted to the analysis of the interpretation of morally significant Qur'anic verses in the work "Nukatu al-I'rab" by Mahmud al-Zamakhshari. The study demonstrates that, through his exegesis of the verses, the author elucidates fundamental human virtues such as honesty, respect for others' rights, truthfulness, politeness and kindness in social interaction, filial piety, and devotion to one's homeland.

MAHMUD ZAMAXSHARIYNING "NUKATU-L-E'ROB" ASARNING BUGUNGI KUNDA YOSHLARNING ODOB-AXLOQINI YUKSALTIRISHDAGI O'RNI

Farida Abzalova

O'zbekistom xalqaro islomshunoslik akademiyasi tayanch doktoranti

faridaabzalova96@gmail.ru

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Zamaxshariy, Nukatu-l-e'rob, jorulloh, botiniy, zohiriy.

Annotatsiya: Mazkur maqola Mahmud Zamaxshariyning "Nukatu-l-i'rob" asaridagi odeb-axloqqa oid oyatlar sharhiga bag'ishlanadi. Muallif maqolada Zamaxshariyning halol bo'lishga, bironing haqqiga xiyonat qilmaslikka, rost so'zlash, o'zaro xushmuomala bo'lish, ota-onaga yaxshilik qilish, vataniga xizmat qilish kabi insoniy fazilatlarni oyatlar sharhi asosida ochib berganini ko'rstib bergan.

РОЛЬ ПРОИЗВЕДЕНИЯ МАХМУДА ЗАМАХШАРИ «НУКАТУ-ЛЬ-И'РАБ» В ПОВЫШЕНИИ НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ МОЛОДЁЖИ В СОВРЕМЕННОСТИ

Фарида Абзалова

Базовый докторант Международной исламской академии Узбекистана

faridaabzalova96@gmail.ru

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

<p>Ключевые слова: Замахшари, Нукаат ал-и'раб, Джаруллах, батиний, захирий.</p>	<p>Аннотация: Данная статья посвящена анализу толкования аятов, связанных с нравственностью, в произведении Махмуда Замахшари «Нукаату-ль-и'раб». В статье показано, что автор на основе комментариев к аятам раскрывает такие человеческие добродетели, как честность, недопустимость посягательства на чужие права, правдивость, вежливость и доброжелательность в общении, почтительное отношение к родителям, а также служение Родине.</p>
--	---

Kirish. Dunyoda o'zbek xalqi o'zining uzoq yillik yuksak madaniyati, qadriyatlarini, boy ilmiy merosi bilan butun jahon e'tirofiga sazovar bo'lib kelmoqda. Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Mahmud Zamaxshariy kabi buyuk mutafakkir olimlarimiz va ular yaratgan bebaho asarlar o'tmishda ham, bugungi kunimizda ham, olimlarni hayratga solbgina qolmay ular ustida qator tadqiqotlar olib borilishiga sabab bolmoqda. Ana shunday olimlarimizdan biri Mahmud Zamaxshariydir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyayev alloma merosiga hurmat bildirib Toshkentda bo'lib o'tgan Islom taraqqiyot banki Boshqaruvchilar kengashining 46-yillik yig'ilishida Mahmud Zamaxshariy haqida shunday deydi: "Jorulloh" ("Allohning qo'shnisi") degan sharafli nom bilan ulug'langan Xorazmlik alloma Mahmud Az-Zamahshariy arab tili grammatikasi rivojiga ulkan hissa qo'shganligi sizlarga yaxshi ma'lum, deb o'ylayman[1]".

Zamaxshariy — nafaqat Qur'oni karim tafsiri ("Kashshof"), adabiyot va tilshunoslik sohasida balki diniy-axloqiy kamolatni yuksaltirishda ham beminnat xizmat qilgan. Zamaxshariyning asosan "Atvoqu-z-zahab fi-l-mavoiz va-l-xutab" ("Va'z va xutbalarda oltin shodalar"), "Rabi'u-l-abror va nusus-u-l-axyor" ("Taqvodorlar bahori va fozillar axbori"), "Maqomotu-z-Zamaxshariy" ("Mahmud Zamaxshariy maqomlari"), "Navobig'u-l-kalim" ("Nozik

iboralar”), “Nasoixu-l-kibar” (“Ulug’larga nasihat”), “Nasoihu-s-sig’ar” (“Kichiklarga nasihat”) kabi asarlarida axloqiy dunyoqarashi va axloqqa doir fikrlari yoritilgan. Alloma botiniy (ichki) go’zallik – asosiy, belgilovchi, ilohiy narsa deb hisoblaydi. Zohiriy (tashqi, yuzaki) go’zallik esa ikkinchi darajali bo’lib vaqt o’tishi bilan u yo’qoladi, lekin ichki go’zallik esa hech qachon insonni tark etmaydi. Shuning uchun ham inson ichki dunyosini axloqiy fazilatlarni kasb etish orqali boyitib, go’zallashtirib borishi kerak deb ta’kidlaydi. Shuningdek, alloma o’z asarlarida ilmning fazilati, olimlar va ularning darajalarini madh etib ilm olishga targ’ib etadi.

Asosiy qism. Mahmud Zamaxshariy ilmni “qalbning nodonlikdan forig’ bo’lishi, zakovatning chirog’i, zulmatda nur, zaif badanda quvvatdir, ilm ila inson oliy darajadagi manziliga yetishadi[2]”, deb ta’riflasa, ilm ahlini “Osmonu falakning ziynati yulduzlar bo’lganidek, zaminning ko’rkamligi olimlardir[3]” deb vasflaydi. Allomaning “Navobig’u-l-kalim” asarida ham ilm va ilm egallash xususida ko’plab fikrlar keltirilgan. “Ilmli bo’l yoki ilmga tayanib ish tutadigan bo’l, loaqal ilmni tinglab eshitadigan bo’l, biroq to’rtinchisi bo’lma, chunki kasodga uchrab halok bo’lasan (juvonmarg bo’lasan)[4]”.

Biz tatqiq qilayotgan “Nukatu-l-e’rob” asari bir ko’rinishda filologik tafsir bo’lsada, undagi g’oyalar, ilgari surilgan fikrlar odob-axloqni shakllantirishni maqsad qiladi. Bu asarda alloma tamonidan tanlab olingan oyatlar tahlili shuni ko’rsatadiki, mazkur asarda aynan urg’u axloqiy fazilatlarni yuksaltirishga qaratilgan. Alloma grammatik qoidalar asosida matnni chuqur tahlil qilish orqali o’quvchilarda tafakkur yordamida odob-axloq qoidalarini kasb etish mas’uliyatini yuklaydi. Shuningdek, grammatik qoidalar asosida so’zga e’tibor orqali muloqotda ehtiyotkorlik va samimiylik axloqiy fazilatini vujudga keltiradi. Grammatik munozaralar (jadallar) talabalarda dalil keltirish, fikrlarni tartib bilan himoya qilish qobiliyatini oshirib ularda mantiqiy fikrlash va dalillashni shakllantirish orqali mas’uliyat va adolat fazilatlarini ildiz otshiga yordam beradi. Quyida Zamaxshariy tamonidan mazmunan dolzarbligi va mohiyatini to’liq ochib berish uchun grammatik tahlilga ehtiyoj mavjudligi jihatiga ko’ra tanlab olinib tahlil qilingan oyatlar yoshlar tarbiyasini yuksalishida muhim ahamiyat kasb etishini yoritib beruvchi misollarni ko’rib chiqamiz.

Zamaxshariy “G’oshiya” surasidagi nuktalar tahlilida insonlarni har bir qilayotgan ishlariga e’tiborli bo’lishi, hech kimga zulm qilmaslik, imkoni boricha faqat ezgu ishlar bilan shug’ullanish kerakligi xususidagi ilohiy ko’rsatmani o’zining mohirona tahlili orqali yetkazib beradi.

Alloh taolo G’oshiya surasi 25-26 oyatlarda quyidagicha marhamat qiladi:

إِنَّ إِلَيْنَا إِيَابَهُمْ

Zero, qaytishlari yolg’iz O’zimizgadir[5]!

[G’oyisha surasi 25-oyat]

ثُمَّ إِنَّ عَلَيْنَا حِسَابَهُمْ

So‘ngra, ularni (qiyomat kuni) hisob-kitobi qilish ham faqat Bizning zimmamizdadir[6].

[G‘oyisha surasi 26-oyat]

Agar zarfning (hol yoki o‘rin bildiruvchi so‘zning) oldinga chiqarilishining ma‘nosi nima? — deb so‘ralsa, shunday javob beriladi: “Buning ma‘nosi tahdidni yanada kuchaytirishdir. Ya‘ni, ularning qaytishi faqat qodir va qahrli Zot huzuriga bo‘lishini anglatadi. Shuningdek, ularning hisob-kitobi ham faqat Uning zimmasida ekanini bildiradi. Chunki, eng kichik narsagacha hisob qiladigan ham aynan O‘sha Zotdir[7]”.

Zamaxshariy bu oyat sharhida “An-naqir” (النَّقِير - xurmo danagi ustidagi kichik nuqta) va “Al-qitmir” (الْقَطْمِير - xurmo danagini qoplab turuvchi yupqa parda) (ya‘ni nihoyatda kichik va arzimas narsalar) so‘zlaridan foydalanish orqali o‘quvchiga har bir qilgan ishiga javob berilishini eslatib o‘tadi. Bu esa insonlarda ayniqsa, yoshlarda o‘zgalarga yaxshilik qilish, birovning haqqiga xiyonat qilmaslik, so‘zi va amalida to‘g‘ri bo‘lish fazilatini shakllanishiga xizmat qiladi.

Nisa surasining 124-oyatida sharhi asosida yaxshi amallar qilish lozimligini ta‘kidlash asnosida yaxshi amallar mukofati Jannat bo‘lishini eslatib o‘tadi.

وَمَنْ يَعْمَلْ مِنَ الصَّالِحَاتِ مِنْ ذَكَرٍ أَوْ أُنْثَىٰ وَهُوَ مُؤْمِنٌ قَالُوا لَنْ نَدْخُلَنَّهُ الْجَنَّةَ وَلَا يُظَلِّمُونَ تَفِيْرًا

Kimki, u xoh erkak bo‘lsin, xoh ayol – mo‘minlik holida savobli ishlar qilsa, aynan ular jannatga kirurlar va ularga xurmo danagining ipicha ham zulm qilinmagay[8].

Agar: “Birinchi “من” (min) bilan ikkinchi “من” (min) o‘rtasida qanday farq bor?” deb so‘ralsa, javob shunday bo‘ladi: “Birinchi “من” (min) “tab‘id” ya‘ni “ba‘zilik” ma‘nosini ifodalaydi. Ya‘ni, “kim yaxshi amallardan ba‘zilarini qilsa”. Chunki, inson turli holatlarning farqlanishi sababli barcha yaxshi amallarni to‘liq ado etishga qodir bo‘lavermaydi. Ikkinchi “من” esa “bayon” (“tabyin”) uchun kelgan bo‘lib, “يعمل” fe‘lida mavjud bo‘lgan umumiy va noaniq ma‘noni aniqlashtiradi. Ya‘ni u bajarilayotgan amalning solih amallar ekanini izohlab beradi[9].

Mutafakkir shaxsning qandayligidan, kimligidan qat‘iy nazar, avvalo u yaxshi xulq va odamiylik ziynatiga ega bo‘lmog‘i kerakligi to‘g‘risida gapiradi va “Go‘zal sifat va xushxulqlik siyratlari bilan bezamagan kishini hech qanday chiroyli kiyimlar ko‘rkam qilolmas, gunoh va xatolardan saqlanmagan kimsaning qalbi sira aybdan forig‘ bo‘lmas[10]” – deydi.

Demak, inson tashqi ko‘rinishi bilan emas go‘zal axloqi bilngina odamiylik mulkiga ega bo‘ladi. O‘zinig solih amallari bilan esa jannatga erishadi.

Zamaxshariy Maorij surasi 10 va 11 oyatlari sharhi orqali o‘zaro muomalada samimiy bo‘lish orqali haqiqiy do‘stlik maqomiga erishish mumkinligiga urg‘u beradi. Chunki do‘stlik bu qadrli tuyg‘u. U barchaga ham nasib etavermaydi. Agar insonlar orasida haqiqiy do‘stona

munosabat bo'lasa o'zaro mehr-oqibat mustahkamlanadi va yurtda tinchlik va hotirjamlik hukm suradi. Islom dini ham ana shunday samimiy do'stlikka chaqirib hattoki, haqiqiy do'stlarga bir-birini shafolat qilish huquqini beradi.

Do'st do'stidan hol-ahvol so'ramas. (Holbuki) ular (bir-birlariga) ko'rsatilurlar[11].

[Maorij surasi, 10-11-oyat]

Agar: “يُبَصِّرُونَهُمْ” fe'lida nega ikki zamir jam' shaklida keltirilgan, holbuki ular ikki yaqin do'stga (ikki “hamim”ga) tegishli-ku? — deb so'ralsa, shunday javob beriladi: “Buning ma'nosi umumiylikni ifodalash uchundir. Ya'ni bu yerda gap faqat ikki kishiga emas, balki har qanday ikki yaqin do'stga taalluqli holda umumiy ma'noda kelgan.

Shuningdek, “يُبَصِّرُونَهُمْ” so'zi sifat (hol yoki sifatlovchi jumla) bo'lishi ham mumkin. Bunda ma'no shunday bo'ladi. Ya'ni ular bir-birlariga ko'rsatilgan, bir-birini tanib turadigan holdagi yaqin do'stlardir[12].

Demak, qiyomatda do'stlar o'z do'stini izlaydi va uni o'zi bilan birga jannatga kirganini ko'rib xursand bo'ladi. Alloma ana shu haqiqatni oyatlarning grammatik tahlili orqali yetkazib berish orqali insonlar orasida o'zaro mehr-muhanbbatni yoyishga targ'ib qiladi.

Alloma do'stlik haqida o'zining “Navobig'u-l-kalim” (“Nozik iboralar”) kitobida ham batafsil bayon etadi. Zamaxshariyning axloqiy qarashlarida yuksak insoniy fazilatlar do'stlik, uning qadriga yetish xususidagi fikrlar alohida e'tiborga molik. Bu haqda allomaning shunday so'zlari bor: “O'z birodaringni yanchilgan mushkdan ko'ra ham xushbo'y so'zlar biln maqtab yod et, garchand u sendan uzoq shaharda bo'lsa ham”. Zamaxshariyning fikricha, mard va oliyjanob kishining eng go'zal fazilatlaridan biri o'z birodarining ayblarini berkitib, uning barcha ishlarini o'zining ishlari o'rnida ko'rib ish tutishidir[13]”.

Alloma Alloh taola yomonliklardan saqlanib yaxshi amallar qilganlarni jannatlar bilan mukofatlashi va ularni do'zax azobidan saqlashi xususidagi yana bir oyatni tahlil qilib insonlarni to'g'ri yo'ldan yurishga chorlaydi.

إِنَّ الْمُتَّقِينَ فِي جَنَّاتٍ وَنَعِيمٍ

Taqvodor zotlar esa bog'lar ne'matlar ichidadirlar.

[Tur surasi 17-oyat]

فَكَوْنِينَ بِمَا عَمِلْتُمْ رَبُّهُمْ وَوَقَّعَهُمْ رَبُّهُمْ عَذَابَ الْجَحِيمِ

Parvardigorlari ato etgan narsa bilan shod-xurramdirlar. Parvardigorlari ularni do'zax azobidan saqlagandir.

[Tur surasi 18-oyat[14]]

Agar “Alloh taoloning «ووقاهم ربهم» (Vaqohum robbuhum) (Parvardigorlari ularni asradi) degan kalomi nimaga atf qilingan?” deb so‘raladigan bo‘lsa, bu ibora «في جنات» (fi Jannat) (jannatda) iborasining muta‘allaqiga atf qilingan bo‘lishi yoki «آتاهم ربهم» (atahum robbuhum) (robbilari ularga bergan) fe‘liga ham atf qilingan bo‘lishi mumkin deb javob beriladi.

Shuningdek, «ما» (ma) ni masdariy (ما المصدرية) deb olish ham mumkin. Bunday holda ma’no quyidagicha bo‘ladi: “Ular Parvardigorlari ularga ato etishi va ularni jahannam azobidan saqlashi sababli shod-xurramdirlar”.

Yana bir ehtimolga ko‘ra bu atflar hol (حال) ma’nosida ham bo‘lishi mumkin. Bunda undan oldin «قد» (qod) lafzi mahzuf (tushirib qoldirilgan) deb taqdir qilinadi[15].

Ko‘rinib turibdiki, Zamaxshariy oyat tahlilida bir qarash bilan cheklanmay bir necha fikrlarni bildirish orqali insonlarga halol va pok bo‘lish orqli jannatga erishish mumkinligini ta’kidlamoqda.

Zamaxshariy yana bir oyat tahlilida o‘zaro urushmaslik kerakligi va agar orada tushunmovchilik kelib chiqsa uni isloh etish zarurligi haqidagi ma’noni talqin etib o‘zaro adovat katta talofatlarga olib kelishi haqida oyat tahlili vositasida ogohlantiradi.

وَإِنْ طَائِفَتَانِ مِنَ الْمُؤْمِنِينَ اقْتَتَلُوا فَأَصْلِحُوا بَيْنَهُمَا

Agar mo‘minlardan ikki toifa o‘zaro urushib qolsalar, darhol ular o‘rtasini isloh etingiz[16]!

[Hujurot surasi 9-oyat]

“Nima uchun oyatda barcha guruhlar emas, balki aynan ikki toifa zikr qilingan?” — deb savol berilsa, ixtilof va nizoning yuzaga kelishi uchun eng kam son ikki taraf bo‘lishi nazarda tutilganligi va agar eng kam miqdordagi tamonlar o‘rtasida ham yarashtirish vojib bo‘lsa, undan ko‘proq taraflar o‘rtasida yarashtirish yanada zarurroq bo‘ladi deb javob beriladi. Sababi, barcha tomonlar o‘rtasidagi nizo va buzilish ikki tamon o‘rtasidagi nizoga qaraganda yanada kattaroq fasod va zarar keltirib chiqaradi[17].

Mazkur oyatning davomida esa o‘zaro bir-birini masxara qilish, bir-biriga laqab to‘qish qoralanadi. Alloma Hujurot surasida shuncha oyatlar bo‘la turib aynan shu oyatlarni tanlab olgani bejiz emas albatta. Chunki, mazkur oyatlar jamiyatdagi eng xunuk illatlar islohihiga bag‘ishlanadi.

يَا أَيُّهَا الَّذِينَ ءَامَنُوا لَا يَسْخَرْ قَوْمٌ مِّن قَوْمٍ عَسَىٰ أَن يَكُونُوا خَيْرًا مِّنْهُمْ وَلَا نِسَاءٌ مِّن نِّسَاءٍ عَسَىٰ أَن يَكُنَّ خَيْرًا مِّنْهُنَّ وَلَا تَلْمِزُوا أَنفُسَكُمْ وَلَا تَنَابَرُوا بِاللِّقَابِ بَيْنَ الْأَسْمَاءِ فَسُوفَ بَعْدَ الْإِيمَانِ وَمَن لَّمْ يَتُبْ فَأُولَٰئِكَ هُمُ الظَّالِمُونَ

Ey, mo‘minlar, (sizlardan) bir millat (boshqa) bir millatni masxara qilmasin! Ehtimolki, (masxara qilingan millat) ulardan yaxshiroq bo‘lsalar. Yana (sizlardan) ayollar ham (boshqa) ayollarni (masxara qilmasinlar)! Ehtimolki, (masxara qilingan ayollar) ulardan yaxshiroq bo‘lsalar. O‘zlarinigizni (bir-birlaringizni) mazax qilmanglar va bir-birlaringizni laqablar bilan

atamangiz! Imondan keyin fosiqlik nomi naqadar yomondir! Kimki tavba qilmasa, bas, aynan o‘shalar (gunoh ishlar bilan o‘zlariga nisbatan) zulm qiluvchilardir[18].

[Hujurot surasi 11-oyat]

Bu o‘rinda “qavm” so‘zi asosan erkaklarga nisbatan qo‘llanadi, chunki ular ayollar ishlarini boshqaruvchi va mas‘ul shaxslar hisoblanadi. Ammo “Fir‘avn qavmi” yoki “Od qavmi” kabi iboralarda erkaklar bilan birga ayollar ham nazarda tutiladi. Biroq bu holatda “qavm” so‘zi ikki jinsni teng ravishda ifodalovchi qat’iy termin emas. Aslida erkaklar zikr qilinib, ayollar esa ularning tobe va ularga ergashuvchi bo‘lgani sababli alohida tilga olinmagan[19].

Zamaxshariy Luqmon surasidan ota-onaga yaxshilik qilish haqidagi oyatni tanlab oldi, uni tahli qilish orqali ota-onani hurmati nihoyatda muhim ekanligini yana bir bor ta’kidladi desak xato bo‘lmaydi.

Biz insonga ota-onasini (rozi qilishni) buyurdik. Onasi uni zaiflik ustiga zaiflik bilan (qornida) ko‘tarib yurdi. Uni (ko‘krakdan) ajratish (muddati) ikki yilda (bitar). (Biz insonga buyurdikki) “Sen Menga va ota-onangga shukr qilgin! Qaytishlik Mening huzurimgadir!”[20]

[Luqmon surasi, 14-oyat]

“Uni onasi zaiflik ustiga zaiflik bilan ko‘tardi, uni sutdan ajratish esa ikki yil ichidadir” degan jumla qanday qilib oyatning boshidagi hukm bilan keyingi mazmun orasiga kiritilgan izohiy jumla sifatida kelgan?”-deyilsa shunday javob beriladi: “Ota-ona haqida vasiyat qilingach, ona bolasini homiladorlik davrida ko‘tarib yurishdan to sutdan ajratish davrigacha boshdan kechiradigan qiyinchiliklar, mashaqqat va azob-uqubatlari zikr qilindi. Bu holat onaga xos tarzda alohida vasiyatni ta’kidlash hamda uning ulkan haqqini eslatish maqsadida bayon qilingan. Shuning uchun bu jumlar oyat ichida onaga tegishli buyuk haqni alohida ko‘rsatib beruvchi izoh sifatida keltirilgan[21].

Demak, oyat tahlili orqali onalarning farzandlari ustidagi haqlari nihoyatda katta ekanligi ta’kidlanmoqda. Agar barcha farzandlar ota-onalarni haqqini to‘liq ado etsa bugungi kunda jamiyat isloh bo‘lar va qariyalar uyi kabi g‘arib xonalarga ehtoyoq qolmasdi. Aynan shuning uchun ham alloma Luqmon surasidagi 34 ta oyatdan aynan ota-onaga yaxshilik qilish haqidagi oyatni tanlab oldi. Isro surasi 23 oyat tahlilida ota-onaga yaxshilik qilish, ular keksalik yoshiga yetganlarida alohida g‘amxo‘rlik ko‘rsatish kerakligi ta’kidlanadi.

وَقَضَىٰ رَبُّكَ أَلَّا تَعْبُدُوا إِلَّا إِيَّاهُ وَبِالْوَالِدَيْنِ إِحْسَانًا إِمَّا يَبْلُغَنَّ عِنْدَكَ الْكِبَرَ أَحَدُهُمَا أَوْ كِلَاهُمَا فَلَا تَقُلْ لَهُمَا أُفٍّ وَلَا تَنْهَرْهُمَا وَقُلْ لَهُمَا قَوْلًا كَرِيمًا

Rabbingiz, Uning O‘zigagina ibodat qilishlaringizni hamda ota-onaga yaxshilik qilishni amr etdi. (Ey, inson!) Agar ularning biri yoki ikkisi huzuringda keksalik yoshiga yetsalar, ularga “uf!..” dema va ularni jerkima! Ularga (doimo) yoqimli so‘z ayt[22]!

[Isro surasi 23-oyat]

Agar nega “كلاهما” (ikkalasi ham) so‘zi ta’kid sifatida qabul qilinmaydi? Axir u ma’tuf (bog‘langan so‘z) bo‘lib, undan oldingi so‘z badal bo‘lishi mumkin-ku, ta’kid esa badalga ham atf qilinishi mumkin edi deyilsa agar maqsad ikkilikni ta’kidlash bo‘lganida, unda faqat “كلاهما” deyilishi kifoya qilgan bo‘lardi. Ammo oyatda “أحدهما أو كلاهما” (ulardan biri yoki ikkalasi) deb kelgan. Shuning uchun bu yerda ta’kid ma’nosi ko‘zda tutilmagan. Natijada “كلاهما” ham xuddi “أحدهما” kabi badal sifatida kelgan deb tushuniladi[23].

Demak, mazkur oyatlar ota-onaning haqqini to‘liq ado etish zarurligi qayta qayta takrorlaydi.

فَأَوْفُوا الْكَيْلَ وَالْمِيزَانَ وَلَا تَبْخَسُوا النَّاسَ أَشْيَاءَهُمْ وَلَا تُفْسِدُوا فِي الْأَرْضِ بَعْدَ إِصْلَاحِهَا ذَلِكُمْ خَيْرٌ لَّكُمْ إِن كُنْتُمْ مُؤْمِنِينَ

Bas, o‘lchov va tarozini to‘la to‘kis o‘lchangiz, odamlarning narsalarini urib qolmangiz va yaroqli qilib qo‘yilgandan so‘ng Yer (yuzi)da buzg‘unchilik qilmangiz! Agar (chin) mo‘min bo‘lsangiz, ana shu sizlar uchun yaxshidir[24].

[A‘rof surasi 85-oyat]

Agar nega oyatda “الكيل والميزان” (o‘lchov va tarozi) deyilgani holda, boshqa joyda (Hud surasida — “المكيال والميزان”) (o‘lchov idishi va tarozi) shaklida kelgan deyilsa bu yerda “الكيل” so‘zi bilan o‘lchash asbobi — ya’ni “المكيال” (o‘lchov idishi) nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin. Demak, “الكيل” so‘zi o‘lchash vositasi ma’nosida ishlatilgan. Boshqa talqinga ko‘ra, o‘lchanadigan narsa o‘lchov nomi bilan atalgan, xuddi “العيش” (hayot, tirikchilik) so‘zi ba’zan inson yashashi uchun zarur bo‘lgan rizq ma’nosida ishlatilgani kabi. Oyatning ma’nosi “o‘lchovni to‘liq ado etinglar va tarozi bilan tortishda ham adolatni saqlanglar” deganidir. الكيل — ba’zan o‘lchash jarayoni, ba’zan esa o‘lchash vositasi (المكيال) ma’nosida keladi.

Demak, bu oyat tahlilida Zamaxshariy savdo-sotiqda tarozidan urib birovning haqqiga xiyonat qilmaslik kerak degan Qur’oniyl ko‘rsatmani ilgari surmoqda.

Xulosa. Xulosa sifatida aytish mumkinki, Zamaxshariy “Nukatu-l-i’rob” asarida oyatlarni tanlab olishda mazmuni jihatidan dolzarb bo‘lgan va i’robiiy jihatdan nozik bo‘lganlariga e’tibor qaratgan. Zamaxshariy insonlarni axloqiy yuksaltiruvchi, to‘g‘ri yo‘ldan yurishga targ‘ib qiluvchi oyatlarni tahlil qilib insonlarni halol bo‘lishga, birovning haqqiga xiyonat qilmaslikka, rost so‘zlash, o‘zaro xushmuomala bo‘lish, ota-onaga yaxshilik qilish, vataniga xizmat qilish kabi insoniy fazilatlar o‘zida mujassam qilishga chaqiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Islom taraqqiyot banki Boshqaruvchilar kengashining 46-yillik yig'ilishidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi // Yangi O'zbekiston gazetasi. 2021 yil 3-sentyabr, -№ 177.
2. Mahmud Zamaxshariy. Robe'u-l-abror. J.3. – Bag'dod. 1982. – B.74.
3. Mahmud Zamaxshariy. Navabeg'u-l-kalim. U.Uvatov tarjimasini. – T.: Kamalak, 1992. – B. 75.
4. Sulaymonova N. Mahmud Zamaxshariy asarlarining manbalari. Monografiya. – T.:Bookmany print, 2022. – B.41
5. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. -T.:Tarjima va tafsir muallifi: A. Mansur. –T.:Munir, 2024. – B. 593. (Bundan keyin Qur'oni karim)
6. Qur'oni karim. – B. 592.
7. “Nukatu-l-e'rob fi g'orib e'rob fi-l-Qur'onil Karim”. Dok. Muhammad Abulfatuh Ash-sharif – Qohira: “Doru-l-Ma'orif”, 1985. – B.368 (Bundan keyin Nukatu-l-i'rob)
8. Qur'oni karim. – B.98.
9. Nukatu-l-e'rob. – B.360.
10. Uvatov U. Xorazmlik buyuk alloma. – T.: Yangi asr avlodi, 2006. – B.90.
11. Qur'oni karim. – B. 568-569.
12. Nukatu-l-e'rob. – B.360.
13. Sulaymonova N. Mahmud Zamaxshariy asarlarining manbalari. – T.: Bookmanyprint, 2022. – B.40.
14. Qur'oni karim. – B. 524.
15. Nukatu-l-e'rob. – B. 349.
16. Qur'oni karim. – B.516.
17. Nukatu-l-e'rob. – B.343.
18. Qur'oni karim. – B.516
19. Nukatu-l-e'rob. – B.343.
20. Qur'oni karim. – B.412.
21. Nukatu-l-e'rob. – B.318.
22. Qur'oni karim. – B.284.
23. Nukatu-l-e'rob. – B.247.
24. Qur'oni karim. – B.161.